IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2 ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Chet tillari va ularni tezlikda o‘rganib katta natija olishning siri nimada?

Djurayev Ikrom
Guliston davlat Pedagogika Instituti PhD,dotsent
Xalimov Sardorbek
Xorijiy til va adabyoti yo‘nalishi
1 - bosqich talabasi

Annotatsiya: Har bir chet tilini o‘rganishni niyat qilgan inson borkim harakatni so‘z yodlashdan boshlaydi yoki bo‘lmasam sodda gramatik qoidalarni o‘rganishdan boshlashi mumkin yoki bo‘lmasam harflarni qanday talaffuz qilinishini mashq qilishdan, bu ka’bi holatlarda bir qancha o‘rganuvchilarda darslardan zerikish kuzatilmoqda. Endi biz siz bilan dastlab tillar haqida keyin esa tillarni o‘rganishdagi qiziqarli uslublar bilan tanishamiz.

Kalit so‘zlar: So‘z boylik, istisno qoidalar, Mnemonika,bir kunda bir so‘z yodla, ierogliflar, dunyo tillari, struktiyaviylik, kalit so‘z uslubi, operativ xotira.

XXl asrga kelib yer yuzida tahminan 5000 ba’zan undan ortiq tillar mavjud bo‘lganligi aytiladi. Ularning aniq sonini aniqlashda muammolar mavjudligi buning asosiy sababi deb shu kungacha yashagan odamlarning tahminiy soni 90 millardga tengligi aniqlandi qolaversa bu insonlar muloqatda juda ham ko‘p tillardan foydalangan. Ushbu tillarning sonini aniqlashtirish esa olimlarning asosiy muammosi hisoblanadi. Barcha tillarning o‘ziga yarasha murakkab so‘zlari, o‘z grammatikasi va istisno qoidalari mavjud. Bu qoidalar endi tilni o‘rganishni boshlagan o‘rganuvchiga ushbu jarayonda biroz muammo tug‘dirishi mumkin. Dunyodagi eng ko‘p foydalaniladigan Dunyo tillari hisoblanmish ingiliz, xitoy, fransuz, rus va arab tillaridir. Biz bu tillarni o‘rganish bilan yer yuzi aholising 4/3 qismi bilan muloqot qila olishimiz mumkin. Ushbu tillar orasida xitoy tili va arab tilini o‘rganish uchun eng ko‘p vaqt sarflanishi statistik ma’lumotlarda keltirilgan tahminan 5 - 7 yilni tashkil etadi. Buning sababi xitoy tilida ketma ket struktiyaviy so‘zlarning mavjud emasligi, 5000 dan ortiq ierogliflar biron belgini bildirishi bo‘lsa, arab tilida esa yozuvning chapdan o‘nga emas balki o‘ngdan chapga qarab o‘qilishi, unlilar biron undoshning o‘rtasida yoki bo‘lmasam oxiri yoki boshida kelganda esa uzun yoki qisqa talaffuz qilinishi bu tillarni o‘rganayotgan o‘rganuvchi uchun biroz muammolarni yuzaga keltiradi . Tillarni o‘rganishning kaliti sifatida biz so‘z boyligini ya’ni o‘rganilayotgan tildagi qancha ko‘p so‘zlarni bilsangiz aynan o‘sha tilni o‘rganish siz uchun juda katta qulaylikni yaratadi. Ilmiy tadqiqotlarga qaraganda bir o‘quvchi boshqa tildagi so‘zlarni yodlash jarayonida bir kunda 20 so‘zni eslab qolishi mumkinligi aniqlandi . Keling birgalikda o‘zga tillardagi so‘zlarni yod olish uchun bir necha qiziqarli uslublar bilan tanishamiz.

Bir kunda bir so‘z uslubi. Ko‘pchilikga birinchi eshitilishda sodda ko‘rilgan ushbu uslub foydaligi jihatdan yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Uslubga ko‘ra o‘quvchi bir kunda bir so‘zni berilgan ta’rifi, sinonimlari omonimlarini o‘rganib chiqib va qanday holatlarda ishlatilishini eslab qolib, yod olishi kerak ikkinchi kundagi vazifa esa yangi o‘rganiladigan so‘zni bir kun avval o‘rganilgan so‘z bilan bog‘lab yodlash. Bu uslub bilan bir oyda davomida 30 so‘zni sifatli to‘g‘ri o‘rganish mumkin.

Mnemonika - o‘xshashlik va bog'liqlik asosida xotira hajmini kengaytirish va kerakli ma'lumotlarni eslab qolish uchun ishlab chiqilgan maxsus uslubdir. Bunda yangi noma’lum bo'lgan tushunchalar inson miyyasida allaqachon mavjud bo'lgan ma'lumotlar bilan bog'lanadi va natijada yangi so‘zlarni eslab qolish

osonlashadi. Misol ta'riqasida Ingliz tilida Tasodifan tarjimasini beruvchi "Casual" so'zini yodlash jarayonida, shunchaki yo'lda ketayotib topib olgan xamyonchani ko'rib bu jarayonni **Casua**l deb atashingiz sizga tasodifiy topib olingan narsa orqali Tasodif so'zini yodlashga yordam beradi. Ushbu uslubga qo'shimcha ma'lumot sifatida o'rganuvchi hayotga bog'lash jarayonida har kuni uchraydigan hodisalarga bog'lashi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kalit So'z uslubi - ushbu uslubda so'zlarni esda olib qolish osonlashishing sababi boshqa bir tildagi so'zning tarjimasini o'z tiliga yaqin ma'nosi bilan birgalikda yod olish, yohud aynan yodlanayotgan so'zga o'zbek tilidagi talaffuzdoshini topish kalit so'zdan foydalanishdir Misol ta'riqasida oladigan bo'lsak "Push" so'zining ingliz tilidan tarjimasi "Itarib harakatga keltirmoq" degan tarjimani bersa bu holatni biz bozorlarda eshitiladigan" Po'sh - Po'sh" so'zi bilan bog'lab eslab qolish o'rganuvchiga o'zga tildagi so'zni o'zining operativ xotirasida olib qolib, o'z tiliga osonlik bilan tarjima qilib o'zining tilidagi kundalik so'zlar qatoridai eslab qolishiga yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan uslublar qo'llagan holda sizning so'z boyligingiz oshib borishi bilan birgalikda aynan o'rganilayotgan tilga bo'lgan qiziqishingizni saqlab qolib, ishtiyoqingizni so'ndirmay yo'lingizda davom etishingiz mumkin. Asosan so'z boyligi sizni tilingizni, so'zlaringizni chiroyli bo'lishini taminlaydi so'z boyligingiz ko'p bo'lgandagina siz har xil va'ziyatlarda har qanaqa holatda tushunasiz. So'z boyligingizni qiziqarli usullar bilan o'zingizni zeriktrmagan holatda oshirib boring tilni yuqori saviyada o'rganing. Grammatik formalar istisno qoidalarni o'rganish jarayonida sizdagi ulkan so'zlar makoni sizga o'rganayotgan tilingiz eshiklarini ochadi.

Xulosa o'rnida aytilishi kerak bo'lgan narsalardan biri tadqiqotlarimiz davomida o'quvchilardagi ulkan so'z boyligi ularning tilni qanchalik yaxshi bilishiga olib kelinishi kuzatildi. Ko'rib turganingizdek har bir tilining o'ziga yarasha qoidalari bor va ushbu murakkab jarayonlarni sizga aytib o'tish orqal o'rganuvchini o'z yo'lidan qaytarish bizning maqsadimiz emas. Bu bilan biz har bir til o'rganuvchini oldinda kutilayotgan qiyinchiliklardanga ogohlantrish bo'lib sizga xizmat qilishini niyat qildik.

Foydalanilgan adabyotlar:

1. Shohruh-Mirzo Rahmonov - Iskandar Sattibayev So'z yodlash sirlari. 2015 yil.
2. Хушназарова, М. Ш., & Хушназарова, М. Н. (2014). Проблемы альтернативного выбора нескольких методов в процессе преподавания английского языка. *Молодой ученый*, (4), 1125-1127.
3. Mukhtarovna, U. M., & Nodirovna, K. M. (2022). Technologies Of Professional Development Of Students In The System Of Higher Education. *Journal of Positive School Psychology*, *6*(11), 1999-2003.
4. Nodirovna, K. M. (2022). PRINCIPLES OF INCREASING THE SHARE OF DIFFERENTIATED EDUCATIONAL METHODS IN THE IMPLEMENTATION OF EDUCATIONAL REFORMS IN UZBEKISTAN. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(11), 126-130.
5. Khushnazarova, M. N. (2022). PROBLEMS OF IMPROVING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS OF PRE-SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *10*(12), 1397-1400.
6. Khushnazarova, M. N. (2022). PROBLEMS OF IMPROVING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF EDUCATORS IN PRESCHOOL EDUCATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *10*(12), 1406-1409.